

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI

XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI

2024-yil 16-aprel

Toshkent – 2024

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta'minlash to'g'risi"dagi 2024-yil 18-yanvarda tasdiqlangan 16-sonli buyrug'iga 1-ilovasidagi 2024-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi asosida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilning 16-aprelida "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani o'tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llanayotgan va foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha o'zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o'qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

G.Norimova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, N.Musulmanova, X.Kadirova, O.Abduhakimova, Y.Shirinova,

O.Turakulova, D.Elova, G.Iskandarova, Y.Do'smurodova

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 9-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.

O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING AHAMIYATI

Xurshida Kadirova¹

Annotatsiya. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning muhim jihatlaridan biri bu til o'rganuvchining o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishi, madsadi va hurmati hisoblanar ekan, ularni til o'rganuvchida paydo bo'lishi o'qituvchining metodikasiga bog'liq. Bunda mustaqil ta'limning ahamiyati katta. Biroq mustaqil ta'limga til o'rganuvchini undash o'ziga xos yondashuvlarni talab etadi. Maqolada mustaqil ta'limni tashkil etishning bir nacha usullari sanab o'tilgan bo'lib, ular til o'rganuvchining o'z xohishi bilan o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishga xizmat qilishi mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *mustaqil ta'lim, o'zbek tili, xorijiy til, bir soat, eshikdan tashqari, pasport, internet, mustaqillik*

Annotation. One of the important aspects of teaching Uzbek as a foreign language is the interest, purpose and respect of the language learner for the Uzbek language, and their appearance in the language learner depends on the teacher's methodology. Self-education is very important in this. However, forcing a language learner to study independently requires special approaches. The article lists several ways to organize independent learning, and it is justified that they can serve to increase the desire of a language learner to learn the Uzbek language on their own.

Key words: *independent education, Uzbek language, foreign language, one hour, outside the door, passport, Internet, independence.*

“Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi” deyiladi O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risidagi”gi qonunning 18-moddasda. Darhaqiqat, mustaqil ta'lim – bu insonning o'z-o'zidan, o'z mustaqil kuchlari bilan ta'lim olish yoki o'rganishidir. O'qitish metodikasida talabani bunga undash aslida mashaqqatli. O'qituvchi talabaning mustaqil ta'lim yo'liga kirish istagini paydo qilishi, samaradorlikka ishontirish yo'llarini qanday topishi mumkin... Zero, buning **natijasi** – talabaning mustaqil sa'y-harakatlari orqali olingan bilim yoki ko'nikmalarni **hayotga tatbiq qila olish** hisoblanadi.

¹ Xurshida Kadirova Batirovna - *Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU, O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi kafedrasida dotsenti, f.f.n.*

Iqtibos uchun: Kadirova, X.B. (2024) O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati. // “O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti” nomli xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. 2024-yil 16-aprel. Toshkent – 2024. 7-14 b.
DOI: 10.52773/tsuull.conf.2024.16.4/WVSI7605

S.Y.Rajabova va X.S.Yakubova mustaqil ta'lim xususida uning afzalliklari, kamchiliklari va unga oid takliflarni bayon etdilar.

➤ Mustaqil ta'lim kontseptsijasining afzalliklari. Mustaqil ta'lim o'qitish usuli sifatida quyidagi yo'llar bilan samarali bo'lishi mumkin: a) o'rganishga, tabiiy qiziqish uyg'otishga yordam beradi; b) o'quvchilarda ishonchni singdirish va o'quv jarayonida ularning mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi; v) umumiy dasturdan tashqari o'qituvchiga fanni chuqur o'rganishga yetaklaydi; d) talabaniq intellektual dunyoqarashini kengaytirishga yordam berishi mumkin; e) o'quvchilarda ijodiy, tadqiqotchilik tamoyilini shakllantirish yo'lidagi eng muhim qadam bo'ladi; f) siqilish, mexanik eslab qolish odatlarining shakllanishiga to'sqinlik qiladi; aksincha, o'quvchining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga va undan oqilona foydalanishga, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga yordam beradi va hokazo.

➤ Mustaqil ta'lim usulining kamchiliklari. Mustaqil ta'lim metodikasining kamchiliklari quyidagilardan iborat: a) metodika kichik yoshdagi talabalar uchun mos emas; b) o'rta maktabdagi o'smirlarda ham, agar o'quvchilarning o'rganishga yetarlicha qiziqishi bo'lmasa, ularning o'qishga beparvo munosabati aniq bo'lsa, metod sifatida mustaqil ta'lim muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin; v) o'qituvchi bu usuldan o'quv jarayoniga chuqur kirmaslik uchun qulay bahona sifatida foydalanishi mumkin; d) ushbu uslubni qo'llash o'qituvchidan juda ehtiyotkorlik bilan rejalashtirishni, shuningdek, bunday treningga jalb qilingan har bir talaba yoki ularning guruhi tomonidan jarayon va sa'y-harakatlarni to'g'ri tashkil etilganini nazorat qilishni talab qiladi.

➤ Mustaqil ta'lim metodikasidan foydalanish samaradorligi bo'yicha takliflar. Mustaqil ta'limni o'qitish usuli sifatida eng samarali foydalanishda quyidagi tavsiyalar yordam berishi mumkin: a) o'qituvchining o'zi mustaqil ta'limdan foydalanishga chinakam qiziqish ko'rsatishi kerak; b) talabalar zarur resurslar va jihozlar bilan ta'minlanishi kerak (yaxshi jihozlangan kutubxona; laboratoriya yoki ustaxonada amaliy topshiriqlarni bajarish uchun zarur jihozlar; yaxshi uy sharoiti va boshqalar); v) mustaqil ta'limni o'qitish usuli sifatida qo'llash uchun o'qituvchi yuqori kasbiy saviyaga ega bo'lishi kerak. [2,1]

Mazkur mulohazadan anglashiladiki, boshlang'ich va o'rta maktablarda mustaqil ta'lim aksariyat iqtidorli talabalarga mo'ljallangan bo'lib, turli olimpiada, ko'rik tanlovlarda ishtirok etish yoki yana biror (medal olish, yuqori darajadagi ta'lim tizimiga o'qishni ko'chirish kabi) shaxsiy manfaatlari uchun belgilanadi. Qo'shma Shtatlardagi ko'plab charter maktablari mustaqil va distansion ta'limning turli shakllarini taqdim etadi: onlayn, oflayn yoki onlayn/internet singari gibridd ta'lim bunga misol bo'la oladi. Demak, mustaqil o'quv dasturlari, ayniqsa, an'anaviy sinf sharoitini qoniqarsiz deb bilganlar uchun foydali. Bil'aks, mustaqil o'qishga sharoiti, sog'lig'i bilan bog'liq muammolari bor, band bo'lgan bolalar uchun, akademik qobiliyati bo'lganlar uchun idealdir. Ko'pincha yuqori natijalarga erishgan o'quvchilarga darsga bormasdan turib o'rganish va o'zini sinab ko'rish uchun mustaqil o'qishga yo'llanma berilib rag'batlantiriladi. Bu

degani mustaqil ta'lim o'rta maktab uchun me'yor emas – u yuqori darajaga erishish uchun qilingan harakat. Mustaqil ta'lim talabalar uchun, mustaqil izlanuvchi, alohida maqsadlar uchun belgilangan vazifadir. Biroq til ta'limida usiz hech narsaga erishib bo'lmaydi. Til ta'limida mustaqillik bilan yuqori pog'onaga ko'tarilish mumkin. Faqat maqsad bo'lishi kerak. Talaba o'z maqsadi yo'lida oqituvchining ko'rsatmasisiz ham ta'lim ola oladi.

Aksariyat hollarda chet tili kurslaridagi ta'lim muayyan mamlakatga tashrif buyurish maqsadida amalga oshiriladi. Tilni tezda o'zlashtirishning eng samarali usuli sayohat hisoblanadi. Til sinfda ham, maktab devorlaridan tashqarida ham eshitiladi. Ona tilida so'zlashuvchi bilan ikki hafta chet tilini o'rganish uyda bir yil mustaqil o'rganish bilan tenglashtirilgani bejiz emas. Chet eldagi til kurslari talabalari nafaqat og'zaki va yozma ko'nikmalarini oshiribgina qolmay, balki yoqimli bonuslarga ega bo'lishadi: yangi madaniyat va butun dunyodan qiziqarli odamlar bilan tanishish, shular jumlasidan.



Bir soatga sig'magan til. Biz auditoriyada til o'rganishda yuzaga keladigan asosiy muammolar va ularni hal qilishga oid harakatlar haqida to'xtalmoqchimiz. Vaqt – mazkur muammolardan biridir. So'nggi o'n yil davomida Peru, Meksika, Koreya, Yaponiya, Xitoy, Iroq va boshqa mamlakatlardan kelgan o'qituvchilarga ingliz tilidan saboq bergan Shayn Dikson, har doim bitta muammoga duch kelganligini yozadi: Talabalarga tilni o'zlashtirishga yordam berish uchun o'qituvchilarning vaqti yetarli emas. Bugungi ta'lim tizimida dunyoning deyarli barcha burchaklarida har qanday til ham boshqa fanlar kabi o'qitiladi.

Muammo shundaki, til o'qituvchilarning xohish istaklari ta'lim muassasalari bilan hech qachon mos kelmaydiganga o'xshaydi. Tilni nafaqat o'rganish, balki o'zlashtirish kerak. Maktablarda (yuqori va kichik sinflarda) va oliy o'quv yurtlarida esa har kuni matematika, tarix yoki tabiiy fanlar kabi til o'rgatish uchun atigi bir soatgina vaqt ajratiladi. Lekin tilni o'rganish predmeti sifatida hisobga olgan holda, talabalar tilni mashq qilish va uni o'zlashtirish uchun yetarli imkoniyatlarga ega emas.

Har bir til o'qituvchisi o'z yechimlarini topishi mumkin. Butun dunyo bo'ylab o'qituvchilar muayyan muvaffaqiyatga erisha boshlagan ba'zi usullar haqida ham ma'lumot bermoqchimiz.

Birinchi, 80/20 qoidasi. Talabalarga tilni darsda mashq qilishlari uchun yetarli vaqt berilganiga ishonch hosil qilish muhim masaladir. Umumqabul qilingan til o'rgatish qoidalariga amal qilish bu o'rinda o'z mohiyatini yo'qotadi.

30.03		31.03	
10:45	Русский язык	10:45	Русский язык
11:00	Чтение	11:00	Чтение
11:15	Математика	11:15	Математика
		11:30	Английский язык
01.04		02.04	
11:30	Русский язык	11:30	Русский язык
11:45	Чтение	11:45	Чтение
12:00	Математика	12:00	Математика
12:15	Узбекский язык	12:15	Этика
03.04		04.04	
11:30	Английский язык	8:30 - 10:30	Технология, Изобразительное искусство, Физическая культура, Музыка
11:45	Узбекский язык		
12:00	Математика		
12:15	Окружающий нас мир		

Ularga tilni 80/20 qoidasi bilan o'rgatish orqali vaqt muammosini muayyan darajada hal qilish mumkin. "Oz-ozdan tez-tez o'rganing" shiori ostida o'qitish yaxshi samara beradi.

Ikkinchi, talabalarni auditoriyadan tashqarida mashq qilishga odatlantirish va qiziqarli ekanligiga ishon tirish. Bu oson bo'lmasligi mumkin. Bu borada quyidagi hikoyani misol qilib keltiramiz.

Men Janubiy Kaliforniyada besh yil ispan tilini o'rgandim. Biroq, darsdan tashqarida, men o'rgangan ispan tilimni hech qachon ishlatmaganman va agar sinfda o'rganganlarimni real hayot bilan bog'lay olsam edi, ispan tilini qo'llash uchun ajoyib imkoniyatlarga ega bo'lishim mumkin edi. To'g'risini aytganda, men boshqalarga qaraganda ko'proq imkoniyatlarga ega edim.

Aytganimdek, onam ispan tilida so'zlashuvchi edi. Otam esa ispan tili o'qituvchisi. Mening ispan tilida ravon gapiradigan do'stlarim bor edi! Ishonchim komilki, bu odamlarning barchasi darsdan tashqarida men bilan ispancha mashq qilishni so'rasam, juda xursand bo'lishardi.

Siz meni aqldan ozgan deb o'ylashingiz mumkin, lekin rostini aytsam, bu xayolimdan ham kelmagan.

Darhaqiqat, akademik hayot bilan real hayot o'rtasidagi bog'liqlik, ayniqsa, yoshlar uchun ko'pincha ko'zga tashlanmaydi. Aksariyat hollarda biz o'rgangan narsalarni qo'llash haqida o'ylamaymiz. Ayniqsa, agar bizni buni qilishga undamasalar. Shunday qilib, o'qituvchining vazifasi, agar joiz bo'lsa, talabalarni eshikdan tashqariga chiqishga va ularga o'rgatilgan narsadan foydalanishga majbur qilishdir.



Til eshikdan tashqarida. Shunday qilib, darsda amaliy mashg'ulotni ko'paytirish yoki talabalarga tilni auditoriyadan tashqarida ham o'rgatish mumkin. Bu bilan vaqt muammosi muayyan darajada hal etilar ekan, uni bartaraf etish muammo emas. Talabalarga auditoriyadan tashqarida tildan foydalanishni o'rgatish juda samaralidir, shuning uchun, tilni qanday o'rganishni ifodalash uchun "eshik" metaforasini qo'llashimiz ham mumkin. Biror tilni o'rganayotganda, talabalarga til kitobda yo'qligini tushunishga yordam berish kerak. U eshikning narigi tomonida.

Til chang bosgan kitobda topiladigan quruq, keraksiz narsa emas. Bu boshqalarni tushunishga va odamlar bilan auditoriyada ham, auditoriyadan tashqarida ham qiziqarli usullarda muloqot qilishda yordam beradigan kuchli, rag'batlantiruvchi va foydali narsadir. Talabalar o'qituvchiga hayrat bilan qarashlari mumkin, lekin o'zbek tilidan ochiq havoda foydalanish usullari borligini ta'kidlash joiz.

Misol uchun, til o'rganuvchilarning auditoriyadan tashqarida tildan foydalanishga yordam berishning bir usuli, ularni o'zlarini sinashi mumkin bo'lgan manbalari ro'yxatini tuzishga undashdir. O'zbek tilida gapiradigan

odamlarni biladimi? Kim o'zbek tilida gapirishga qiziqishi mumkin? Vaholangki, til o'rganuvchilarning muloqot qilishi ularga potensial imkoniyatlarni tahlil qilishda yordam beradigan kuchli vositadir. Bu esa o'qituvchiga qaysi talabaning eng yaxshi manbalarga ega ekanligini bilishga yordam beradi. U qarindoshi, o'rtog'i bo'lishi mumkin.

Talabalar o'zbek tilidan foydalanishlari mumkin bo'lgan manbalar, odamlar, joylar va vaziyatlar ro'yxatini yozgandan so'ng, o'qituvchi ularga o'zlarini qulay his etishi mumkin bo'lgan joylarni tavsiya qilishi mumkin. Bular til o'rganuvchilar erkin borib gaplashishlari va foydalanilishi oson bo'lgan usullarni mashq qilishlari mumkin bo'lgan joylardir.

Til o'rganuvchilarga film tomosha qilishni yoki o'zlari yoqtirgan musiqalarni tinglashni taklif qilish yoki auditoriyani bir klubga aylantirishi ham mumkin. Unda yoshlar bir-birlariga ma'lum bo'lgan mavzular doirasida suhbatlashadilar. Masalan, men bir turk tili o'qituvchisining o'z auditoriyasini kafega aylantirganini ko'rganman va talabalar yemaklardan bahramand bo'lgan ko'yi, turli xil



menyulardan ma'lum qiziqarli taomlarga buyurtma berishar edi, shu orada sevindi qo'shiqlarini birgalikda kuylangani meni lol qoldirgan edi.

Internet. Shubhasiz, Internet fenomeni haqida hamma biladi. Hozir




kompyuter yoki mobil telefonda ko'plab narsalarni amalga oshirish mumkin. Agar onlayn ta'lim tizimi bo'lsa, til o'rganuvchi bemalol muzlatgichdan gazak olib yeyishi mumkin. Pochtasini tekshirmoqchi bo'lsa, "pauza"ni bosishi mumkin. Avvalgidek, auditoriyada o'tirib til o'rganish vaqti o'tdi, deguvchilar ham yo'q emas. Dunyo

o'zgardi. Internet bizni ilgari imkoni bo'lmagan yo'llar bilan bog'laydigan ajoyib vositadir. Xuddi shunday, talabalarning istalgan tilni auditoriyadan tashqarida o'rganish va amaliyotda qo'llash imkoniyati hech qachon bo'lmagan. Klaviaturani bir necha marta bosish orqali dunyoning istalgan joyda bo'lishga imkoniga ega bo'lish hech gap emas.

Bunda ko'proq ingliz tilida yozish va gapirish amaliyotini mustahkamlashga doir yuzlab turli manzillarni uchratamiz. Lekin so'ngi paytlarda o'zbek tilini o'rgatuvchi ana shunday saytlar ko'zga tashlanib qoldi. Bitta muammo bor. Minglab saytlar va yuzlab ilovalar bo'lgani bilan, til o'rganuvchilarga Internet va smartfonlardagi ushbu keng ko'lamli o'quv resurslarida ishlashlari uchun muayyan yordam kerak. Til o'qituvchisi veb-saytlar va ilovalarni o'zi topib, talabaga tavsiya etgani ma'qul.

Aslida, doimiy izlanish va yangi saytlarni izlash zamonaviy o'qituvchi faoliyatining ajralmas qismidir. Keyinchalik, bilimi ko'paygan sari talabalar o'rganayotgan tilini yaxshilash uchun ko'plab manbalarni o'zlari topa boshlaydi.

Filmlar. O'yinlar. Musiqa. Bularning barchasi Internetda mavjud va talabalar uchun til amaliyoti vositasi bo'lishi mumkin. Agar o'qituvchi talabalardan kengroq sohalarda bilim ehtiyojini sezsa, fan tilidagi integratsiyalashgan ta'lim yondashuvidan foydalanish tavsiya qilinadi. Chet tillarini o'qitishning ushbu usuli o'qituvchilarga o'rganilayotgan til, bizning vaziyatimizda o'zbek tili orqali har qanday mazmunni o'z ichiga olgan darslarni yaratish va o'qitish imkonini beradi: tarix, fan, matematika, nima bo'lishidan qat'i nazar. Musiqa tarixiga qiziqqan talabalar Yalla haqidagi darsdan katta zavq olishlari mumkin.



Talabalarga guruh haqida qo'shiqlar, qo'shiq matnlarini berish, shuningdek, ularning sevimli xonandasi Sevara Nazarzon yoki Bolalar guruhi haqida gapirib berishlarini so'rash mumkin. Qolaversa, zamon bilan hamnafas bo'lish, Internet va smartfonlarda yangi dasturlarni kuzatish zarurligini alohida qayd etishning zarurati yo'q, degan umiddamiz. Talabalar nimadan foydalanishini, o'zbek tilidagi qaysi veb-saytlarga murojaat qilishni bilishlari shart. Shuningdek, ushbu sayt va ilovalarni muntazam darslarda muhokama qilishdan qo'rqmaslik kerak. Tilning keng miqyosda tanitishni o'qituvchi xohlashi kerak.

Shuningdek, bu tilning dunyosiga kirishning yana bir yo'li kitob, badiiy adabiyotdir. O'qituvchi o'z kutubxonasidan, talabalarga tez-tez o'qish uchun kitob berib turish tavsiya etiladi. Yangi texnologiyalar uchun eski texnologiyalardan voz kechishning hojati yo'q.

Mustaqillik. Til o'qituvchisining vazifasi auditoriyadan tashqarida o'zbek tilini talabalarni mashq qilishga undashdir. Bunda bir uzv muhimdir. Bu shunchaki "siz ko'proq mashq qilishingiz kerak" degani emas. O'qituvchilarning maqsadi til o'rganuvchilarga bilim va imkoniyatlarni berish natijasida ularning oxir-oqibat o'qituvchisiz ham o'zlarini boshqara olishlariga erishishdir. Bu xuddi, poloponlarini uchirma qilgan ona qush kabidir. Ona qush poloponlarining o'z yo'lida, o'z holicha yashashi va uchish vaqti kelganini anglab yetadi. U ularni kerakli miqdorda xavf-xatarlardan va yomon ob-havodan pana qilib, o'z inidan uloqtiradi. O'qituvchi ham o'z tolibini yaxshi ko'rgani uchun shunday qiladi, mustaqil hayotga o'rgatadi va qo'yib yuboradi.

Bu o'qituvchi o'quv faoliyatining asosini tashkil qiladigan tamoyildir. U o'z talabalarining tez orada tark etishini bilgan holda ularga o'z-o'zini takomillashtirish va mashq qilish uchun yaxshi ko'nikma va strategiyalar berishi kerak. O'qituvchi sifatida uning eng muhim maqsadlaridan biri talabalarga til o'rganishda mustaqil bo'lishga yordam berishdir.

Mustaqillik – yo'l-yo'riqsiz, mustaqil ravishda harakat qilish qobiliyatini anglatadi. Til o'rganishda bu turli sohalarda harakat qilish demakdir. Masalan, o'zbek xonadoniga mehmonga borish yoki do'stiga xabar yozish. Shuningdek,

talabalarining Internetdagi savollarga javob bera olishi yoki oddiygina o'zbek tilida erkin muloqot qilish kabi o'zlariga kerakli manba va ma'lumotlarni tezda topish qobiliyati ham nazarda tutiladi.

Alal oqibat, talabalarda O'zbekiston bo'ylab sayohat qilish, fikr almashish va bundan zavqlanish erkinligi paydo bo'ladi. O'zbek tilini o'rganuvchi Samarqand yoki Buxoroga tashrif buyurib, ko'hna minoralarni ko'rishlarini, Xorazmga borishlarini va u yerda baliq yeyishlarini, keyin esa Toshkentga borishlarini va mashhur shaxslari bilan uchrashishlarini o'zlari istashlari mumkin.



Til o'rganuvchi dunyo bo'ylab erkin harakatlanishlari mumkin bo'lgan pasportga o'xshaydi va shu ma'noda, ingliz tili dunyodagi turli madaniyat va millat vakillari bilan muloqot qilish nuqtai nazaridan eng kuchli va keng tarqalgan tillardan biridir. Avval o'qituvchini aktyorga mengzagan edik. Endi esa talabalarining o'zlarini aktyorlarga o'xshatamiz, chunki ular bunday imkoniyatlarga ko'proq ega, ular mustaqil ravishda o'rganishlari, o'z fikrlarini ifoda etishlari, boshqalarni tinglashlari va tushunishlari va jahon hamjamiyatining bir qismi bo'lishlari mumkin.

ADABIYOT:

- Beysenova A., Kadirova X.* Mashg'ulotlarda o'zbek va rus tillaridagi turg'un birikmalarning lingvokulturologik qiyosiy tahlili // ORIENSS. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mashg-ulotlarda-o-zbek-va-rus-tillaridagi-turg-un-birikmalarning-lingvokulturologik-qiyosiy-tahlili>
- Kadirova X.B.* O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda ta'lim sifatini belgilovchi omillar // International scientific journal of Biruni. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilini-xorijiy-til-sifatida-o-qitishda-ta-lim-sifatini-belgilovchi-omillar>
- Kadirova X.B.* O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda metafora. // «Развитие образования и культуры в условиях цифровизации: проблемы и перспективы». Материалы II Международной научно-практической онлайн-конференции: 27- 28 мая, 2022 год. <https://msu.dvaoblaka.ru/media/2022/08/62f14d800900f>
- Абдукодирова Н., Кадирова Х.* (2024). Ўзбек тили феъл замонларини ўқитишда электрон база яратиш. *Язык и культура Узбекистана*, 5 (2). Получено с <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-cultural/article/view/78>.
- Кадирова Х. Б.* Формы подачи информации в образовании узбекскому языку // Вестник науки и образования. 2023. №11 (142)-2. URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/formy-podachi-informatsii-v-obrazovanii-uzbekskomu-yazyku>

Кадирова, Х. (2024). Два режима процесса обучения узбекскому языку в игровой технологии. *Язык и культура Узбекистана*, 5 (2). Получено с <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-cultural/article/view/82>.

Мусулманова Н.Р. О проблемах преподавания узбекского языка в иноязычных группах (на примере языковых ярусов) // «Вестник науки и образования» №2 (105) 2021. Часть 2. Москва (ИПАФАКТОР 3,8) <https://cyberleninka.ru/article/n/o-problemah-prepodavaniya-uzbekskogo-yazyka-v-inoyazychnyh-gruppah-na-primere-yazykovyh-yarusov>

Худайбердиева И., Кадирова Х. (2022). Трудности в различии падежей русского и узбекского языков. *Перспективы узбекской прикладной филологии*, 1 (1). Получено с <https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences3/article/view/277>.

MUNDARIJA:

1	Muhammedova S. Shirinova Y. Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir.....	3
2	Kadirova X.B. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati.....	7
3	Iskandarova G.T. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda so'z ma'nolarini o'zlashtirish.....	15
4	Musulmanova N. Filologiya yo'nalishi rusiyzabon guruhlarida o'zbek adabiyoti fanini o'qitishda asar tahlili muammolari.....	21
5	Isayeva Sh. Adabiy o'qish darslarida ruhiyat masalalarining o'rganilishi..	25
6	Do'smuradova Y. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.....	31
7	Turakulova O.A. O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	35
8	Məmmədov X. Kadirova X. X(iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri.....	39
9	Elova D.Q. O'zbek tilining rasmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublarining ahamiyati.....	45
10	Abdulkhaimova O. O'zbek muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlari.....	56
11	Xo'jayev N. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi.....	61
12	Aytniyazova N. O'zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	66
13	Nasirdinova O. Lingvostatistika – tilshunoslikning zamonaviy va amaliy sohasi.....	70
14	Khidoyatova D.A. Views of eastern thinkers on interactive education and its principles.....	75
15	Davronov A.S. O'zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o'rgatish.....	79
16	Аликулова М. Анализ изучения языка и стиля произведений А.И.Куприна.....	82
17	Bazarova D.B. Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan.....	88
18	Yo'ldosheva Y.A. Grafologik tahlil qilish metodikasi.....	91
19	Beysenova A. Kadirova X. Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar.....	96
20	Pardayeva M.Ch. Xorijliklarga o'zbek tilini maqsadli o'qitishda yuzaga keladigan muammolar va muqobil yechimlar.....	102
21	Shodmanov T.A. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari.....	107
22	Abduqodirova N. Multilingualizm muhitida shakl va ma'no munosabatlarini o'qitishning lingvokulturologik jihatlari.....	112